



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2024-yilning yanvar-sentabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 32 109,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,8 % ni tashkil etdi.

yanvar-sentabr
mlrd so'm



yanvar-sentabr
FHI, %






■ mlrd so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (19 659,1 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (14 801,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar-sentabr oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 31 087,3 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,8 % ni, tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (36,1 %), Jomboy tumani (8,8 %), Urgut tumani (8,7 %), hamda Samarqand (6,8 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (117,8 %), Kattaqo'rg'on tumanida (113,3 %) hamda Oqdaryo tumanida (110,9 %) kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2024-yil yanvar-sentabr oylari)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash 5,7 % ga hamda Ishlab chiqarish 8,4 % ga oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 8,5 % ga hamda Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish 13,4 % ga pasayishi kuzatildi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 200,4 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 13,7 % (14,3 %), o'rta-quyi texnologiyali 22,2 % (19,4 %) va quyi texnologiyali 60,2 % (62,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,5 % (2023-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 179,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,3 % (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 38,3 % (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,7 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	39,3	37,7	-1,6
Paxta tolasi, ming t.	34,8	34,5	-0,3
Tozalangan paxta yog'i ming tonna.	14,5	20,1	5,6
Shag'al – ming t.	446,9	348,3	-98,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	12,6	117,1	104,5
Tamaki – mln dona	7 474,5	7 900,4	425,9
Piva – ming litr	20 938,0	17 040,0	-3 898,0

2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda tozalangan paxta yog'i mahsulotlari 20,1 ming tonna (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 39,1 % ga ko'p) hamda 446,9 ming tonna shag'al (22,1 % kam) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 2 375 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 7,3 % ga ko'paygan.



2024-yil

2 375 dona

2024-yil

107,3 %

2023-yil

2 213 dona

2023-yil

72,3 %

2022-yil


3 059 dona

2022-yil

95,2 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-sentabr oylarida 578 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,7 % ga kamaygan.



2024-yil

578 dona

2024-yil

89,3 %

2023-yil

647 dona

2023-yil

76,0 %

2022-yil


851 dona

2022-yil

122,3 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 101,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,3 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 92,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 982,1 mlrd so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 86,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 6,5 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 179,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 075,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 116,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,4 %, fizik hajm indeksi esa, 103,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 9 432,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 158,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 87,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 370,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 18,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,4 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 275,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 %, fizik hajm indeksi 104,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 895,1 mlrd so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 134,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 144,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 460,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 184,1 % ni, tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %, fizik hajm indeksi 116,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 410,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 116,5 % ni tashkil etgan..

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 119,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi 852,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 117,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 119,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 885,5 mlrd so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 113,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 138,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 994,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 79,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,2 %, fizik hajm indeksi 97,3 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 2 626,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 600,9 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	99 315,8	274 387,1	175 071,3
Issiqlik energiyasi, mln gkal	3 537,3	4 998,5	1 461,2



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 220,7 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	38 861,6	50 741,9	11 880,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	86 844,1	106 694,6	19 850,5
Plastmassa chiqindilari, tonna	2 175,7	2 521,2	345,5


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 387 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 085 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,1 %) Samarqand shahriga, 757 tasi (14,1 %) Urgut tumaniga, 562 tasi (10,4 %) Samarqand tumaniga, 396 tasi (7,4 %) Pastdarg'om tumaniga va 299 tasi (5,6 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

883 ta

2024-yil yanvar-sentabr

1024 ta

2023-yil yanvar-sentabr

1 295 ta

2022-yil yanvar-avgust



Jami faoliyat yuritayotgan (1-oktabr holatiga)

5 387 ta


2024-yil

6 246 ta

2023-yil

8 622 ta


2022-yil





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 217,3 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,1 % ni tashkil etdi.

yanvar-sentabr
mlrd soʻm



yanvar-sentabr
ulushi, % da



■ mlrd soʻm ■ ulushi, %